

OBUNA  
INDEKSI:  
882


# ERKATOY

Bolaligim – poshsholigim!


№10(15). 2014 y  
oktabr



KUTIB OLING,  
INGLIZ TILIDAGI  
“ERKATOY” JURNALI!



## USTOZ SIZGA TA'ZIMDAMIZ



*Milliy akademik drama teatrining taniqli aktyori, ustoz san'atkor Erkin Komilov bo'ladi. U kishi 1946-yil 20-iyulda Andijon viloyatida tug'ilgan.*

—Men bolaligidan aktyor bo'lishni orzu qilardim. Orzularimni amalga oshirish uchun tinmay mehnat qilganman, juda ko'p kitoblar o'qishga to'g'ri kelgan.

Odamzodni ona dunyoga keltiradi, ustoz ko'kka ko'taradi, ilm beradi, savod beradi. Ongni shakllantirishda, bilimdonlik mezonida ustozdan ulug' inson bo'lmasa kerak. Ustoz duosini olganlarni aziz, mukarram bo'lib yurganini ko'ryapmiz. Ustozni piri

*“Amakijon, bitta qissa aytib bering, ikkita bo'lsa yana yaxshi”.*

*Ushbu iborani bilmagan bola bo'lmasa kerak. Bolajonlarning sevimli asari - “Qunduz amakining qissalari” multfilmidagi Qunduz amakiga dublyajda ovoz bergan O'zbekiston xalq artisti, Mehnat shuhrati ordeni sohibi, O'zbek*

komil deyishadi. Mening ustozim Shukur Burxonov bo'lgan, ularni har kuni eslayman. Ustozimni eslamagan kunim yo'q.

Ota-onadan keyingi o'rinda albatta ustoz ulug' bir inson sanaladi.

Bizning ongimiz zakovatimiz, gapga chechanligimiz, mana shunday martabalarga erishib, O'zbekiston xalq artisti degan nomga loyiq deb topilishim ham ustozlar tufaylidir. “Ustoz - otangdek ulug'” deb bejiz aytilmagan. Ota-onani, ustozni hurmat qilgan, duosini olgan odam hech qachon kam bo'lmaydi.

“Erkatoy” jurnalining jajji, shirindan-shakar muxlislariga nasihatim, bilim berayotgan barcha ustozlarni e'zozlang.

Aziz ustozlar, barchangizni 1-oktabr — o'qituvchilar va murabbiylar kuni bilan tabriklayman!



Val's sur'atida

Laylo Tursunova she'ri va musiqasi

*mf* *f*

Do-im qush-lar say-ra - sin, Ba-hor dil-da yang-ra - sin Os-mon bo'l-sin mu-saf-

6 fo, o... *mf* Bor-liq-qa ber-sin zi - yo. Tinch oq-sin jo'sh-qin dar - yo,

11 *mp* *mf* Qu-yosh kul-sin do-i - mo. Bo-la-jon-lar yay-ra - sin, Bul-bul bo'-lib say-ra - sin.

17 *f* *mf* O - lam mu-nav-var bo'l-sin, Nur-ga to'l-sin, nur-ga to'l - sin. Yur - tim -

22 *Tamomlash uchun* da bay-ram bo'l-sin, Bay-ra-min-giz qut-lug' bo'l - sin



Doim qushlar sayrasin,  
Bahor dilda yangrasin.  
Osmon bo'lsin musaffo,  
Borliqqa bersin ziyo.

Tinch oqsin jo'shqin daryo,  
Quyosh kulsin doimo.  
Bolajonlar yayrasin,  
Bulbul bo'lib sayrasin.

Olam munavvar bo'lsin,  
Nurga to'lsin, nurga to'lsin.  
Yurtimda bayram bo'lsin,  
Bayramingiz qutlug' bo'lsin.

Qadim zamonlarda bir mamlakatda donishmand bir qirol hukmronlik qilgan ekan. Uning farzandi yo'q ekan. Kunlardan bir kuni qirol: "Mamlakatdagi eng vijdonli bolani topib, uni o'zimga o'g'il qilib olsam", deb o'ylabdi va mamlakatdagi barcha bolalarga gul urug'i ulashishni buyuribdi.

"Kimki shu urug'dan eng chiroyli gul yetishtirsa shu mening o'g'lim yoki qizim bo'ladi",- deb e'lon qilibdi.

Hamma bolalar urug'ni ekib, parvarish qila boshlashibdi.

Rustambek degan bola ham urug'ni ekib, rosa parvarish qilibdi. Lekin bir oy o'tsa hamki, gultuvakka ekilgan urug' qilt etmasmish.

"Bu qanaqasi bo'ldi?" debdi hayron bo'lib Rustambek, u axiri onasidan so'rabdi.

— Nega men ekan urug' unib chiqmayapti?

Onasi ham shundan tashvishlanib yurgan ekan:

— Tuprog'ini yangilab ko'r-chi, - debdi.

Rustambek gultuvakdagi tuproqni almashtiribdi. Bu safar ham urug' ko'karmabdi.

Qirol gullarni ko'radigan kun yetib kelibdi. Hamma bolalar yasanib-tusanib, tuvakda o'zlari o'stirgan gullarni ko'tarib yo'lga chiqishibdi. Ularning hammasi valiahd bo'lish orzusida ekan. Negadir qirol gullarga qarab hamma bolalarning oldidan o'tib ketaveribdi. Uning chehrasida shodlikning uchquni ham ko'rinmabdi.

U bir uyning oldida bo'sh tuvak ko'tarib yig'lab

turgan Rustambekni ko'rib qolibdi.

— Nima uchun sen bo'sh tuvak ushlab turibsan? - deb so'rabdi.

Rustambek piq-piq yig'lab, kunlardan bir kuni birovning bog'idan egasiga bildirmasdan olma uzganini, shuning uchun bo'lsa kerak, qancha urinsa ham urug'ni undira olmaganini gapirib beribdi.

Bu gapni eshitib qirol Rustambekni ko'rsatib:

— Mana mening pok vijdonli o'g'lim,- debdi.


Odamlar orasida g'avur-g'uvur boshlanibdi:

— Qirol nima uchun gultuvagi bo'sh bolani o'g'il qilib oldi?

Shunda qirol tushintirib beribdi:

— Ey xaloyiq, men bolalarga ulashgan gul urug'i qaynatilgan edi.

Shundan keyingina odamlar qirolning fikrini maqullashibdi. Rang - barang gullar ko'tarib turgan bolalarning yuzlari uyalganlaridan qip-qizarib ketibdi. Chunki ularning hammasi boshqa gul urug'i topib ekan ekanlar-da.



L L  
l l



B B  
b b



K K  
k k



R R  
r r





O O  
o o



D D  
d d









a bookcase

a blackboard




chalk

a teacher



a map



a bag

a girl-pupil

a table

a book

a pen


### MY WEEK

On Monday I play basketball.  
On Tuesday I swim and skate.  
Wednesday football and volleyball.  
On Thursday I read till late.  
On Friday I do my homework  
for seven hours at least.  
And on Saturday and Sunday  
all I do is to sleep.

a copy-book

a pencil

a ruler



a boy-pupil

a chair



## ORZULARI OLAM QIZALOQLAR

*Biz Fotima va Zuhra Niyozovalarmiz. 2007-yil 4-aprel Toshkent shahrida tug'ilganmiz. Ayni damda Uspenskiy nomidagi musiqa maktabining 1-sinf fortopiano yo'nalishida o'qiyimiz. Uch yoshimizdan boshlab sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'illanib kelmoqdamiz.*



Sog'lom bola

2012-yilda „JAR“ ochiq chempionatida badiiy gimnastika bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqada 3-o'rinni, 2013-yil mart oyida bo'lib o'tgan musobaqada 1-o'rinni, 2014-yil 1-iyun "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan o'tkazilgan sport festivalida faol ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritdik.

Biz, badiiy gimnastikadan tashqari suzish bilan ham shug'illanamiz. Sportning bu turi bo'yicha ustozimiz — dadajonimiz bo'ladilar.

Yaqinda ingliz tilini o'rganishga kirishdik. Uni puxta va mukammal bilishga bel bog'ladik. Rus tilida esa bemalol so'zlashamiz.

**Fotima:** Zuhra bo'sh vaqtlarida rasm chizishga, ertak kitoblarni o'qishga qiziqadi. Uning sevimli ertagi "Oltin baliqcha". Zuhra kelajakda huquqshunos bo'lishni orzu qiladi.

**Zuhra:** Fotima esa bo'sh vaqtlarida oyimga, uy ishlarida yordamlashadi. Har xil pishiriqlar pishirishga, salatlar tayyorlashga juda qiziqadi. Fotimaning kelajakdagi orzusi shifokor bo'lish.

Malika DONAYEVA tayyorladi.





\* Bodom po'sti bilan  
Odam do'sti bilan

\* Gul o'ssa yerning ko'rki  
Qiz o'ssa elning ko'rki

\* Piyozning po'sti ko'p  
Yaxshining do'sti ko'p

\* Daryo suvini bahor toshirar  
Odam qadrini mehnat oshirar

\* Hunari borning  
oltin bilagi bor.

\* Ilmlini so'zi o'q  
Ilmsizning so'zi yo'q.

\* Egri shoxni bog'bon ham,  
Kesib tashlar ko'rgan dam.  
Shu sabab to'g'ri o'zar,  
Egri esa ozar - to'zar.



Ilm o'rganish eng mo'tabar ishdir. Ilm odamning qadrini oshiradi, ilmlil kishilar dunyoda eng izzatli, hurmatli bo'ladilar. Ilm dunyoda odamlar uchun eng sevimli, eng shirin ne'matdir. Shunday ekan, siz dunyoda rohatda yashashni istasangiz, hamma meni sevsin desangiz, bor kuchingiz bilan o'qishga, ilm olishga g'ayrat qiling.

Aziz bolajonlar! O'qing, darsga ixlos qo'yib o'qing, foydali kitoblardan foyda va rohat olish uchun o'qing. Kishining eng aziz, eng shirin va eng qimmatli vaqti yoshlik davridir. Shunday qimmatli yoshligingizni, aziz umringizni foydasiz ishlarga sarf qilmang. Bir donishmand:

- Ko'rkam xulq  
ikki narsa bilan, ya'ni  
ilm, adab o'rganish va  
yomon ishlardan saqlanish bilan topiladi,  
- degan.





Munimxon MUMTOZXONOV.  
Toshkent sh. 169-maktab  
o'quvchisi.



Rayxona UMAROVA.  
Toshkent sh. 61-maktab  
o'quvchisi.



Asilbek HAYDAROV.  
Toshkent sh. 61-maktab  
o'quvchisi.



Jasmina SAFAROVA.  
Arnasoy tumani. Bobur MFY.



Gulsevar RASULOVA.  
Kitob tumani. "Mahbuba"  
nomli bog'cha tarbiyalanuvchisi.



Dilsora SOBIROVA.  
Kogon tumani. 1-maktab  
o'quvchisi.



### KAPALAK

Kapalakjon kapalak,  
Doim quvna b uchasan.  
Chamandagi hoy malak,  
Gullarni ham quchasan.

*Abdulaziz RIHSIBOYEV.  
Toshkent sh. 193- maktab  
o'quvchisi.*

### VATANIM



Tog'laringda kezganman,  
Bog'laringda kezganman.  
Ona diyor mehringni,  
Har qadamda sezganman.

Sevdik seni umrbod,  
Sen borsangki ko'ngil shod.  
Ne buyursang tayyormiz,  
Biz baxtiyor yosh avlod.

*Madinabonu Mirhakimova.  
Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani  
Xo'jakent qishlog'i. 18-maktab o'quvchisi.*

### JUMBOQ

### Aralash-quralash

Bog'da 3 ta olma daraxti bor. Daraxtlarning har birida 28 tadan olma bor, ularning har ikkitasidan bittasiga qurt tushgan. Daraxtlarda jami nechta olma bor va ularning nechtasiga qurt tushgan?



Shu olmani  
o'rniga quyon  
bo'lganda  
albatta  
topardim.

*Masxarabozning qo'lidagi sharlarda  
ko'rsatilgan harflardan so'zlar yasang  
va shu so'zlar ishtirokida matn tuzing.*



Ustoz so'zidagi harflar ishtirokida bo'sh kataklar o'rnini to'ldirib, qizlar va o'g'il bolalar ismini hosil qiling.



*Bolajonlar, topishmoqlarning javoblarini rasmlarga qarab toping. Qaysi rasm qay bir topishmoqqa tegishli ekanligini aniqlang.*

Yer ustida - yashil zulfi,  
Yer ostida - asl mulki.  
Rangi oltin - olov naqd!  
U bor bo'lsa - palov naqd!



Sut yuziga qalqar sekin,  
Bizga - pulli, buzoqqa - tekin!



Tollar ichra "yig'loqi",  
Joyidir - suv qirg'og'i.

Tagidan urar olov,  
Ichida pishar palov.



Qorin qo'ygan - havodan  
Uchar yengil sabodan.  
Rezinadan yaralar,  
Salginaga - yorilar!



"B" harf bilan beshta bo'ldi,  
Turli hunar-ishda bo'ldi!  
"Q" harfida yurib dovi,  
O'ngdan keldi baliq ovi!

(*hou'ub 'hou'ug*)

"S" harf berar gavdani,  
"D"-la boylik degani!

(*Savlat, davlat*)





ЗАГАДКИ

И по степи бежит,  
И на дороги лежит.

(vдgээ)



Без тела, рук и ног,  
Медленно идет,  
Но что бы ни случилось,  
Не остановит ход.

И дверь им отворяют,  
И жажду утоляют.

(hонu)



(квэдэ)


Взял я шар, разбил его —  
В нем золото и серебро.

(оhпк)



МАЙ  
ГАЙ  
ЧАЙ  
ЛАЙ  
ЗАЙ

1. Вожак волков.
2. Месяц.
3. У коров - стадо, у лошадей - ... .
4. Корка на снегу.
5. Играет на трубе.
6. Дядька 33 богатырей.



Раскрась сам

## 'Kutilmagan sovg'a'

tanlovining oktabr oyi g'oliblari  
bilan tanishing:

### 1. Xolisxon Umarova.

Toshkent shahar, Yashnaobod tumani,  
244-maktabning 6-"a" sinf o'quvchisi.

### 2. Gulshoda Nasrullayeva.


Buxoro viloyati, Kogon shahar  
17-son IDUM o'quvchisi.

### 3. Shaxnoza To'raqulova.

Toshkent shahar, Yashnaobod tumani,  
Parvoz mahallasi, 244-maktab  
5-sinf o'quvchisi.

*Aziz bolajonlar! Siz ham tahririyatga  
maktub yozing va tanlovda ishtirok  
eting. Tanlovda albatta g'olib bo'lib,  
"kutilmagan sovg'a" egasiga aylana-  
siz. Maktubda manzilingiz va maktab  
raqamingiz aniq ko'rsatilgan bo'lsin.*

**G'oliblarga "kutilmagan sovg'a"  
pochta orqali jo'natiladi. Sovg'amiz  
sizga yoqadi deb o'ylaymiz.**




Yelimqog'ozdan  
filning rasmini olib,  
yopishtiring va unga  
qarab rasmni bo'yang.

## DIQQAT, DIQQAT!

“Erkatoy” jurnalining aziz muxlislari, qadrli obunachilar! Agar siz jurnalga obuna bo'lgan bo'lsangiz, ammo o'z vaqtida yetkazib bermayotgan bo'lishsa quyidagi ishonch telefoniga albatta qung'iroq qiling.

**+99 890 119-27-87**

*Ushbu rasmning rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib, o'z joyiga joylashtiring.*



**Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.**

**Ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr**  
**Jurnal oyda bir marta chiqadi**

**MUASSIS:**  
“Matbuot info media servis” MChJ  
**Bosh muharrir, loyiha muallifi:**  
Nodir YUSUPOV

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Iqbol MIRZO (hay'at raisi)  
Shermat YORMATOV  
Bahodir SHAROFOV  
Vohid LUQMON  
Orif TO'XTASH  
Nodir JONUZOQ

**Mas'ul kotib:**  
Durdona AZIZIOVA

**Rassomlar:**  
Najot JO'RABOYEV  
Aziz JABBOROV

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

**Tahririyat manzili:**  
100011. Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 16-<sup>XX</sup> uy, 415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

“Sano Standart” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami -  
Bichimi - 70/100 1/16  
Nusxasi - 7000

Jurnal “Erkatoy” tahririyati kompyuterlarida sahifalandi. Sahifalovchi:  
**Anvarjon MIRZAALIYEV**

Jurnal qahramonlari suratlaridan foydalanish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirildi.



Rasmlardagi 7 ta  
farqni toping

OBUNA-2015

# ERKATOY

S'CALLYWAG



O'ZBEKCHA  
OBUNA INDEKSI:

**882**

ENGLISH  
OBUNA INDEKSI:

**967**

Ma'lumot uchun telefon: +998 95 196-58-34; Guvohnoma: 0632